



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov

«18» may 2026 y.
№ 377

**“Grafik tezlatgichlar (GPU) bilan jihozlangan server qurilmalarini
ijaraga olish”**

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent 2026 y.

TEXNIK TOPSHIRIQ

1. Buyurtmachi

Buyurtmachi – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB.

Buyurtmachining manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Navoiy ko‘chasi, 18A uy. Tel: (+998 78) 150-00-55

2. Ijrochi

Ushbu tanlov bo‘yicha ijrochi tanlash natijalari asosida belgilanadi.

Ijrochi mazkur hujjatning barcha talablarini qondiruvchi uskunalarni ijaraga yetkazib berish bo‘yicha o‘zining Texnik taklifini taqdim etishi zarur.

3. Texnik ta‘minotga qo‘yiladigan talablar

Mahsulotni ijaraga yetkazib berish bo‘yicha barcha talablar sharti bilan yetkazib berishni ta‘minlashni o‘z ichiga oladigan yetkazib berishni ko‘zda tutadi.

Serverlar 12 oy muddatga taqdim etilishi kerak.

Texnik taklifda taklif etilayotgan server ro‘yxati, soni va texnik xarakteristikalari taqdim etilishi kerak.

Yetkazib beriladigan serverlarning texnik ko‘rsatkichlari texnik talablarda ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlardan past bo‘lmasligi zarur.

Ijaraga yetkazib beriladigan server ro‘yxati vas oni 1-jadvalda keltirilgan. Barcha uskunar to‘liq ro‘yxati bo‘yicha texnik taklif kiritilishi lozim. Agar ro‘yxatdagi ayrim uskuna bo‘yicha texnik taklif kiritilmasa, bu taklif rad etiladi va ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.

Taklif etilayotgan va ijaraga yetkazib beriladigan uskunar texnik talablarda ko‘rsatilganlaridan past bo‘lmagan texnik xarakteristikalariga ega bo‘lishi lozim (2-jadval).

1-jadval

Server ro‘yxati

No	Qurilma nomi	Soni
1.	Sun‘iy intellekt uchun jismoniy (GPU) server	1

Shu bilan birga, tanlovda potensial ishtirokchilar doirasini kengaytirish uchun ajratilgan byudjet doirasida buyurtmachi texnik topshirig‘ida ko‘rsatilgan uskunalarga o‘xshash yoki ustun xususiyatlariga ega uskunar ko‘riladi. Shu munosabat bilan, shunga o‘xshash yechim taqdim etilgan taqdirda, quyidagilarni taqdim etish shart:

- Unumdorlik va samaradorlik bo‘yicha texnik-iqtisodiy ma‘lumotlar;

- Mavjud infratuzilma (migratsiya, ko‘chirish yoki almashtirish) bilan o‘zaro integratsiya uchun moliyaviy xarajatlar hisobi.

2-jadval

GPU serverlarning har biriga qo‘yiladigan talablar

No	Talab tavsifi	Qiymati
1.	Standart server tokchasiga (rack) o‘rnatish form-faktori va balandligi	4RU dan ko‘p bo‘lmagan
2.	O‘rnatilgan protsessorlar soni: har biri kamida 24 yadroga ega, chastotasi 2.0 GGs dan past bo‘lmagan, kesh-xotirasi 45 MB dan kam bo‘lmagan. Maksimal issiqlik tarqatish quvvati (TDP) 185 Vt dan oshmasligi kerak.	Kamida 2 dona
3.	Xotira modullarini o‘rnatish uchun DDR5 slotlari soni	Kamida 16 dona
4.	O‘rnatilgan RDIMM xotira modullari: har birining hajmi kamida 64 GB, ishchi chastotasi 4800 MT/s dan kam bo‘lmagan, Dual Rank.	Kamida 16 dona
5.	Operativ xotiraning umumiy hajmi	Kamida 1024 GB
6.	2.5 dyuymli disklarni o‘rnatish uchun hot-plug o‘rinlar (slotlar) soni	Kamida 8 dona
7.	O‘rnatilgan SSD SATA disklar: hajmi kamida 3.84 TB, Read Intensive, 6Gbps, 512e, 2.5 dyuymli, Hot-plug.	Kamida 6 dona
8.	RAID kontroller: apparat darajasidagi RAID kontrolleri (Dell PERC H755 yoki analogi), kamida RAID 0, 1, 5, 10 darajalarini qo‘llab-quvvatlovchi, enterprise darajadagi ishlash uchun mo‘ljallangan.	Kamida 1 dona
9.	O‘rnatilgan tarmoq adapteri: kamida 2 ta 10/25GbE SFP28 portiga ega (Broadcom 57414 yoki analogi), PCIe full height.	Kamida 1 dona
10.	Grafik tezlatgichlar (GPU): NVIDIA H100 NVL yoki analogi, har birining video xotirasi (VRAM) kamida 94 GB, xotira turi HBM3, xotira shinasi kengligi 6016-bit, xotira o‘tkazuvchanlik qobiliyati kamida 3938 GB/s.	Kamida 4 dona
11.	GPU dasturiy ta‘minot qo‘llab-quvvatlashi: NVIDIA Virtual PC, NVIDIA Virtual Applications, NVIDIA RTX Virtual Workstation, NVIDIA Virtual Compute Server, NVIDIA AI Enterprise.	Majburiy
12.	NVIDIA Enterprise obunasi (subscription) muddati	Kamida 5 yil

№	Talab tavsifi	Qiymati
13.	Elektr ta'minoti bloklari: quvvati kamida 2400 Vt, "issiq almashtirish" (hot-swap) imkoniyati bilan; to'liq rezervlash (1+1) rejimida ishlashi shart.	Kamida 2 dona
14.	Masofadan boshqarish va monitoring qilish uchun o'rnatilgan apparat-dasturiy vosita (iDRAC9 Enterprise 16G yoki analogi) va barcha zarur litsenziyalar bo'lishi shart.	Majburiy
15.	Server to'liq komplektdagi xatoliklarga chidamli, rezervlangan sovutish ventilyatorlari bilan butlangan bo'lishi shart.	Majburiy
16.	Serverni standart 19" telekommunikatsiya tokchasiga o'rnatish uchun montaj relslari bilan butlangan bo'lishi shart.	Majburiy
17.	Kamida quyidagi operatsion tizimlar va gipervizorlar bilan mos kelishi shart: VMware, Red Hat Linux, Ubuntu, Windows Server.	Majburiy
18.	Qurilmalar yakuniy foydalanuvchiga sotilgan sanadan boshlab, kafolat muddati davomida Toshkent shahridagi rasmiy servis markazlarida ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari bilan ta'minlangan holda yetkazib berilishi shart. Ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: 24/7 Texnik ko'mak; Joyida servis xizmati (On-site); Nosoz apparat qismlarini keyingi ish kunidan (NBD) kechiktirmasdan almashtirish.	Majburiy

Tanlashda bo'lg'usi ishtirokchilar doirasi kengayganida Buyurtmachi tomonidan texnik xarakteristikalarini texnik topshiriqda keltirilgan texnik ko'rsatkichlarga muvofiq keladigan yoki undan oshadigan o'xshash yechimlar asosidagi takliflar ko'rib chiqilishi mumkin.

4. Yetkazib berish joyi va shartlariga qo'yiladigan talablar

Ijrochi mahsulotning quyidagi manzilga yetkazib berilishini ta'minlashi zarur:

- O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 53A uy.

Yetkaziladigan tovarning hammasi O'zR hududiga rasmiy yo'l bilan olib kirilishi, qonunchilikka yoki ekvivalent xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlanishi kerak, bu tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi zarur.

Tovarlarni yetkazib berish va yakunlash-tushirish ishlari yetkazib berish joyigacha avtomobil transporti yoki boshqa har qanday usulda yetkazib beruvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

<https://hujjat.brb.uz/?pin=xH24IA27&id=579bec4e-1e60-4bd1-b7e9-6318fb89157f>